

UO'K (UDK): 811.22.1.

ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MAQOL VA MATALLARNING O'RGANILISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14413481>

Abdunabiyev Sunnat Botirovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Sharq tillari kafedrası o'qituvchisi

sunnat1989@gmail.com

ANNOTATSIYA

Masal (maqol) bu hayotiy kuzatuv va tajribalar asosida shakllangan, avloddan avlodga hech qanday o'zgarishsiz o'tadigan, ixcham, lo'nda dono gap. Masal doim insonning ko'zi oldida turadi. nasihat qiladi, buyuradi, qaytaradi. unda uchta asosiy jihat bor lafzning qisqaligi (lo'ndalik); ma'noni yetkazib berish; go'zal o'xshatish. Har bir o'z tiliga ega bo'lgan xalqning asrlar davomida sayqallangan o'z maqol va matallari bo'ladi. Mazkur maqola orqali tilshunoslikda maqol va matallarning olim va tadqiqotchilar orqali o'rganilganligi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: maqol, masal matal, frazeologizm, nosobit iboralar, lingvistika

ИЗУЧЕНИЕ ПОСЛОВИЦ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

АННОТАЦИЯ

Пословица — краткое, мудрое изречение, сложившееся на основе жизненных наблюдений и опыта, передающееся из поколения в поколение без каких-либо изменений. Притча всегда находится перед глазами человека. Консультрует, заказывает, возвращает. оно имеет три основных аспекта: краткость слова (краткость); передать смысл; хорошая аналогия. У каждого народа, имеющего свой язык, есть свои пословицы и поговорки, которые оттачивались веками. В данной статье представлена подробная информация об изучении пословиц и поговорок в лингвистике учеными и исследователями.

Ключевые слова: пословица, фразеология, языкознание, относительные предложения

STUDYING PROVERBS IN MODERN LINGUISTICS

ABSTRACT

A proverb is a short, wise saying, formed on the basis of life observations and experience, passed down from generation to generation without any changes. A

parable is always before a person's eyes. Consults, orders, returns. it has three main aspects: brevity of the word (brevity); convey the meaning; a good analogy. Each nation with its own language has its own proverbs and sayings that have been honed over the centuries. This article provides detailed information on the study of proverbs and sayings in linguistics by scientists and researchers.

Key words: *phraseology, proverbs, linguistics, relative clauses*

KIRISH

To XX asr boshlarigacha maqol va matallarga munosabat Yevropa mintaqa ilmida ham qadim arab masal ilmi darajasidan unchalik uzoq ketmagan edi. Masalan, mashhur rus lugʻatshunos olimi Vladimir Dal qalamiga oid “ Rus xalq maqollari” toʻplamida maqol, matal, hikmatli soʻzlar, xurofot (poveriye), tez aytishlar, qochiriqlar va boshqa xalq nutqida qayta-kayta ishlatiluvchi iboralar bilan aralash holda berilgan. U oʻz tuplamiga oʻttiz mingdan oshiq ibora kiritgan. Yevropa olimlaridan A.Teylorning 1930-yilda bosilib chiqqan asari maqol haqidagi yangi zamonning asosli tadqiqotlaridan hisoblanadi. U Gʻarbiy Yevropa xalqlarining maqol va matallarini mavzular boʻyicha tasnif etdi. Masalan, “Tarixiy maqollar, qonun haqidagi maqollar, ob-havo haqidagi maqollar, odat va xurofotlar” kabi mavzularga ajratdi. Uning asarida maqol va matallarning kelib chiqishi va rivoji, ularning tipologik tahlili, janr va uslub xususiyatlari, variantlari, poetikasi, asosiy tiplari, hozirgi zamon paremiologiyasining asosiy yoʻnalishlari haqida fikr yuritiladi. A.Teylor fikriga koʻra, maqolga taʼrif berish juda mushkul va koʻpchilikni qoniqtirishi qiyin boʻlgan ishdir. Shu sababli u maqolni shartli ravishda “xalq orasida keng tarqalgan ibora”, deb taʼriflashdan boshlashni taklif etadi. Shunday qilib, “proverb” termini Teylorda ham keng maʼnoda qoʻllanilgan va shu sababli maqol va matallar qatoriga turli frazeologik ibora va idiomalar ham qoʻshilib ketgan. 1964-yildan boshlab Xelsinki shahrida ingliz, fransuz, nemis va rus tillarida “proverbium” xalqaro jurnapi chop etila boshladi. 1964 -1973-yillarda uning 22 soni bosilib chikdi. Fin adabiyoti jamiyati asos solgan bu jurnal oʻz atrofiga butun dunyo mashhur paremiologlarini birlashtirdi va bu fanning dolzarb masalalarini muhokama va hal qilishda katta rol oʻynadi

Xalq ogʻzaki ijodini zamonaviy bosqichda tahlil etish mashhur rus folkloristi V.Ya.Proppning 1928-yilda bosilib chiqqan “Ertak morfologiyasi” kitobi bilan boshlanadi. Bu kitobda ertakning oʻziga xos ichki mantiqiy qurilishi ochib berilgan. Bunda ertak qatnashuvchilarining funksiyalarini tasniflash asosida ertakning ichki qurilish tipologiyasi tahlil qilinadi.

60-yillarga kelib, G.L.Permyakov sharq xalqlari maqol va matallarini qiyosiy oʻrganish asosida oʻzining umumiy “klishe” nazariyasini yaratdi va shu bilan “xalq orasida keng tarqalgan iboralar”ni ichki shakl va maʼno xususiyatlari asosida izchil tasniflab berdi. G.L.Permyakov tasnifi asosida maqol va matallar bir tomondan frazeologik iboralardan,

ikkinchi tomondan turli masal, latifa, ibratli hikoyat kabi xalq ogʻzaki ijodining kichik janrlaridan aniq farqlab berildi.

Keyingi yillarda Amerika olimi Alan Dandis, fin olimlari Matti Kuusi, venger olimi Vilmos Foyt, Z.Kanyo, ingliz olimi N.Barli, rus olimlari Yu.I.Levin, M.A. Cherkasskiy, eston olimi A.A.Krikmann va boshqalarning nazariy mulohazalari va amaliy tadqiqotlari paremiologiya ilmini bugungi bosqichda rivojlantirishga katta hissa qoʻshmoqda. Tan olib aytish kerakki, ushbu tadqiqotlar koʻpchiligining asosida G.L.Permyakov yaratgan izchil nazariy sistemani u yoki bu darajada toʻldirish va takomillashtirish yotadi. G.L.Permyakov taʼrificha "murakkab klishe" (slojnoye klishe) eng umumiy tushuncha boʻlib, muayyan bir qolipda doimo takrorlanuvchi muqim soʻz birikmalarini anglatadi. Bular oʻz navbatida bir necha guruhga boʻlinadi:

1. Frazologizmlar. Ularning eng umumiy xususiyati shaklan kamida ikki alohida soʻzdan iborat boʻlib, maʼno jihatidan yagona tushunchani bildiradi, yaʼni qandaydir alohida narsa-hodisa (vещь)ning belgisi (znak) boʻlib keladi. Shunday qilib, frazeologizm shaklan bir necha soʻzdan iborat boʻlsa ham, maʼno jihatidan bir soʻzga tengdir.

2. Maqol va matallar. Bular shaklan toʻliq. yoki notoʻliq, murakkab yoki sodda jumla teng boʻlib, mazmunan bir narsa-hodisani emas, balki muayyan narsa-hodisalar orasidagi munosabatning, yaʼni muayyan vaziyat (situatsiya) yoki holatning belgisi boʻlib keladi. Maqol va matallar har qancha murakkab boʻlsa-da, bir jumladan tashqari chiqmaydi.

3. Bir necha jumladan tashkil topgan qaytariluvchi matn birliklari (сверхфразовое единство). Bular xalq ogʻzaki ijodiga taalluqli turli ixcham janrlar, kichik masallar, latifalar, topishmoqlar, ertaklar va boshqalarni oʻz ichiga oladi. Olim xalq ogʻzaki ijodining boshqa kichik janrlaridan maqol va matallarni ajratib olgach, oʻz navbatida ularni xam turlarga ajratadi. Bunda avvalo ikki alomatni mezon qilib oladi:

1) Iboraning umumiy maʼnosi xarakteri.

2) Jumla tarkibining sobit yoki nosobitligi (zamknutoye-nezamknutoye). Ushbu asosda maqol va matallar toʻrt guruhga ajratiladi:

1. Toʻgʻri maʼnodagi nosobit iboralar - (прислове).

2. Majoziy maʼnodagi nosobit iboralar - asl matallar.

3. Toʻgʻri maʼnodagi sobit jumlar - hikmatli soʻzlar.

4. Majoziy maʼnodagi sobit jumlar - asl maqollar.

G.L.Permyakov oʻz kitobida bu guruhlarini turli asoslarda yana maydaroq toʻplarga boʻladi. Masalan, tasdiq va inkor gaplar, darak, savol va undov gaplar, sodda va qoʻshma gaplar, juft va toq tazodlar (oppozitsiya) va hokazolar. Mazmuniy jihatdan olim maqollarni umumiy va xususiy mazmundagi maqollarga ajratadi. Matallarni esa egasi qisqargan yoki olmosh bilan ifodalangan va ikkinchi darajali gap boʻlagi qisqargan yoki olmosh bilan ifodalangan nosobit jumla larga ajratadi. Agar bu tasnif sistemasi koʻproq masal va matallarning shakliy qurilishidan kelib chiqqan boʻlsa va kamroq bahsga sabab boʻlgan

bo'lsa, G. L. Permyakov tadqiqotlarining ikkinchi bosqichi maqollar mazmunining mantiqiy tahliliga qurilgan. Bunda olimning tayanch nuktasi yuqorida tilga olingan maqol va matallarning mazmun xususiyatidan kelib chiqadi, ya'ni maqol va matallar mazmuni frazeologik iboralardan farqli o'laroq, ikki yoki bir necha narsa-hodisa orasidagi muayyan munosabatlar . belgisi bo'lib xizmat qilishiga qurilgan. Ushbu asosda olim to'rt tur munosabatni ajratib ko'rsatadi:

1. Narsa-hodisa va uning xususiyatlari orasidagi munosabat.

2. Ikki narsa-hodisa orasidagi munosabat.

Bu ikki tur munosabatlar sodda munosabatdir. Keyingi ikki tur murakkabroq munosabatlarni aks ettiradi.

3. Ikki narsa- hodisaning xususiyatlari orasidagi munosabat ularning o'zaro munosabatlariga bogliq.

4. Ikki narsa-hodisa orasidagi munosabat ularda ma'lum xususiyatlar bor yoki yo'qligiga bog'liq.

G.L.Permyakov o'z nazariy qarashlarini amalga tadbiiq etib, 1968-yilda "Sharq xalqlari tanlangan maqol va matallari" to'plamini, 1979-yilda "Sharq xalqlari maqol va matallari" to'plamini tuzib nashr etdi. Birinchi to'plamdan yetmish ikki xalqning yetti mingga yaqin maqol va matallari joy olgan bo'lsa, ikkinchi to'plamdan 204 ta xalqning o'n ikki ming maqoli joy olgan. Bu maqollar olim ixtiyoridagi ellik mingga yaqin maqollar ichidan tanlab olingan. Birinchi kitob ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi maqol va matallarni, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, shakliy (lingvistik) tasnifi asosiga qurilgan. Ikkinchi qismida esa, maqollar mazmuni mantiqiy tahlil asosida turlarga ajratilgan.

1979-yilda nashr etilgan kitobda olim o'z tahlilini mukammallashtirib va rivojlantirib, birinchi qismda sharq xalqlari maqol va matallarini ularda tilga olingan narsa-hodisalararo munosabatlar bo'yicha turlarga ajratgan bo'lsa, ikkinchi qismda maqollarni o'zaro zidlashtirilgan juft mohiyatlar asosida tasniflagan. Kitobda 25 turga misol berilgan bo'lib, asli nazariy kismda 76ta asosiy mavzu juftlari sanab o'tilgan. Olimning ta'kidlashicha, butun maqollar yig'imining 97 foizi ushbu 76 mavzu juftida qamrab olinadi. Asli mavzu juftlari umumiy sanog'i 180dan oshiq bo'lib, albatta aniq chegarasi yo'q.

Shunday kilib, G.L.Permyakov tasnifi uch yo'nalish asosida qurilgan:

1. Lingvo-sintaktik asosdagi tasnif. Unda paremiologik jumalarning shakliy til qurilishi asos bo'lib xizmat qiladi.

2. Logiko-semiotik tahlil. Bunda maqollar mantiqiy mazmunining shakliy qurilishi tasniflash asosida yotadi.

3. Maqollardagi asosiy timsol-tushunchalarning mavzu doiralari asosidagi tasnifi.

Uchinchi tasnif G.L.Permyakovning oxirgi kitobida asosiy hisoblanib, uning har bir turi yana o'z ichida mantiqiy-sintaktik asosdagi tasnif bilan boyitilgan. Masalan, timsol-tushunchalarning mavzu guruhlari asosida besh katta bo'lim ajratilgan:

1. Bir buyumning turli qirralarini ifodalovchi o'zaro zidlashtirilgan timsol-tushunchalar.
2. Alohida moddiy asosdagi zidlashtirilgan timsol-tushunchalar.
3. Bir-birisiz mavjud bo'lmaydigan alohida narsalardan iborat zidlashtirilgan timsol-tushunchalar.
4. Kesishuvchi elementar timsol-tushunchalar asosida mustaqil olib qaralgan zidlashtirilgan tushunchalar.
5. Biror-bir buyumni anglatmaydigan mavhum tushunchalar.

Bu bo'limlarning har biri o'z navbatida yanada muayyanroq bir qator guruhlariga taqsimlangan. Masalan, birinchi bo'lim nazariy qismda olti asosiy guruhdan iborat bo'lib, ularning birinchisi "mazmun-shakl", ikkinchisi, "butun-bo'lak", uchinchisi, "boshlanish-tugallanish", beshinchisi "buyum-belgi" tazodi kitobning asosiy qismida berilgan (4,6 tazod tashlab ketilgan). Agar bulardan birinchi guruh "mazmun-shakl" tazodini olib qarasaq, asosiy timsol-tushunchalar aro munosabatlar turiga ko'ra yana taqsimlab chiqilgan. Masalan: Mazmun va yoki shaklning 1)odatiylik-g'ayriodatiyligi, 2)o'zgarmaslik-o'zgaruvchanligi, 3)chegarali-chegarasizligi, 7)o'ziga xoslik bir xilligi, 8)o'zaro bog'liqligi-mustaqilligi, 9)mos tushish-tushmasligi, 15)sifatliy mutanosiblik-nomutanosibligi, 22)sifatliy afzallik-noafzalligi va hokazo kichik guruhlariga ajratilgan.

Albatta, G.L.Permyakovning tasnifi mukamalligi va ko'p qirraliligi bilan bu sohadagi barcha ishlardan ajralib turadi va olimning ham mantiqiy tahlilda, ham axboriy (informatsion) qamrovda nihoyatda qudratli ekanidan xabar beradi. Ammo jonli hayotdagi har bir soha singari xalq og'zaki ijodining muhim tarkibiy qismi bo'lmish maqol va matallar dunyosi ham hududsiz va murakkabdir. Uni har qanday nazariya mukammal izohlab berishi imkondan tashqari. G.L.Permyakov tasnifini amaliy o'rganib chiqqan kishida shunday bir taassurot qoladiki, bu tasnif mantiqi o'z to'g'ri ma'nosida ishlatiluvchi hikmatli so'zlarga nihoyatda mos tushgan holda olimning o'zi "asl maqollar" deb ta'riflagan majoziy ma'noli iboralarga doim ham qoniqarli talqin bera olmay qoladi. Bir necha misol: 73-sahifada Yevropa xalqining maqoli berilgan bo'lib, "olovga o'choqdan boshqa hech kim chidamaydi", deb tarjima qilingan va "ba'zida buyum o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, xos bo'lmagan xususiyatlarga ega bo'lmaydi, ba'zida esa xos bo'lmagan xususiyatlarni tashigan holda o'ziga munosib xususiyatlarni ifodalamaydi", deb ta'riflangan bo'limga kiritilgan, vaholanki, maqolning harfiy tarjimasi bunday tasnifga hech qanday asos bermaydi. Yana bir misol: ikkinchi bo'lim "v" qismi birinchi guruhi "so'z-sukut" deb nomlangan. Undagi duala xalqining (434-bet) "Qayiqning tubi suvning chuqurligi haqida hech nima demaydi" maqoli asl mazmuni jihatidan ushbu guruhga bevosita aloqasi bo'lishi shubhalidir. Yana bir misol: ikkinchi bo'lim "v" qismining to'rtinchi guruhi "bilim - johillik" tazodini anglatadi. Undagi juda ko'p iboralar hikmatli so'zlardir yoki quyidagi ibora singari majoziy va to'g'ri ma'nodagi ikki jumlaning birlashuvidan iborat murakkab

tusdadir: "bilimli odam kamtar, chuqur daryo sokin bo'ladi". Ammo shu guruhdagi yana bir maqol: "Boshqasi bilan solishtirmay qayiq tezligini bilib bo'lmaydi" (448-6.) o'z mazmuniga ko'ra bu guruxda begonaga o'xshaydi.

XULOSA

Maqollar murakkab va ko'p qirrali mohiyatga ega. Ayniqsa, asl maqollar shu jihati bilan tadqiqotchini ko'p o'rinda tang ahvolga soladi. A.A.Krikmannning "Maqollar mazmuniy nomuayyanligining ba'zi qirralari" nomli maqolasida e'tibor ushbu murakkab masalaning qator jihatlariga qaratilgan. Jumladan, umumiy nom bilan majoziy atalgan maqollar mazmunini "kinoya" (allegoriya), "yarim kinoya", "noto'liq majoz", "to'liq majoz" kabi turli guruhlariga ajratib chiqadi. Har bir maqolning mazmuniy imkoniyati va uning real hayotdagi ishlatilish doirasi, atash funksiyasidagi nomuayyanlik, turli talqin imkoniyati, nutqda ishlatilish doirasi va uning turli yunalishlari, jumladan, so'zlovchining nutq mazmuniga munosabatini bildirishdagi o'zgarishlar bilan bog'liq murakkabliklar va boshqa masalalar jiddiy qarab chiqilgan. Shunga qaramay, bajarilgan tadqiqotda qo'limizdan kelgan darajada ham an'anaviy arab "masal" ilmi yutuqlaridan, ham so'nggi davr Yevropa paremiologiyasi erishgan nazariy zamindan ijodiy foydalanishga harakat qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Саломов Ф. Эй умри азиз. 1-китоб Т.:Шарқ 1997
2. Снегирев И.М. Русские народные пословицы и притчи М.:1848
3. Турсунов У., Мухтаров Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили – Т.:1979
4. Фойт Вильмой. Разработка общей теории пословиц//М.:Вост.лит 1978г
5. Қодиров Т.Ш., Алиев Д.И., Араб тили лексикалогияси Т.:2010
6. Абдурахмонов М. Қисқача ўзбекча-русча фразеологик луғат.- Т.:Ўқитувчи, 1980.
7. Акбаров С.Ф ва б. Русча-ўзбекча луғат.Икки томли. 1-том. Т.:Ўзбек Совет Энциклопедияси Бош редакцияси, 1983ю
8. Войнова Л.А., Жуков В.П., Малатков А.И.,Федиров А.И. Фразеологический словарь русского языка. Под ред. А.И.Молоткова. -4-е изд.,стереотип.-М.:Русский язык. 1986.
9. Жуков В.П., Жуков А.В. Школьный фразеологический словарь русского языка. –М.: Просвещения, 1989.